



**UMUMTA'LIM MUASSASALARINING MOLİYALASHTIRISH MEXANIZMI
HOZIRGI HOLAT VA MUAMMOLARI**

Ummatov Avaz Muydinovich

Institut " International School of Finance and Technology ", kafedra "

Menejment" kafedrası Menejer kafedrası oqituvchisi

Email: ummatovavazbek6@gmail.com

Annotatsiya: *Ta'lim tizimining yuksalishi malum jihatdan moliyaviy sharoitga borib taqaladi. Bugungi kunda umumta'lim muassalaridagi moliyaviy holat haqida maqolamizda yoritamiz.*

Kalit so'zlar: *budjet, jamoat birlashmalari, xalqaro grantlar, YuNICEF*

Umumtalim muassasalarini moliyalashtirish mexanizmi hozirgi kunda bir qator o'zgarishlar va yangiliklar bilan yuzma-yuz kelmoqda. O'zbekistonda bu jarayon asosan quyidagi jihatlarga asoslanadi:

Budjetdan moliyalashtirish: Umumtalim muassasalari davlat budjetidan asosiy mablag'larni oladi. Bu mablag'lar o'qituvchilar maoshi, infratuzilma va boshqa xarajatlarni qoplashga mo'ljallangan.

Mamlakatimizda 2017 yil 1 oktyabr holatiga xalq ta'limi tizimi maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim va maktabdan tashqari ta'limini o'z ichiga olgan. Endilikda Xalq ta'limi vazirligining maktabgacha yoshdagi bolalarning o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish funktsiyalari barcha davlat maktabgacha ta'lim muassasalari bilan birga Maktabgacha ta'lim vazirligiga o'tkazilgan. Bolalar va o'smirlarning yakka tartibdagi ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat birlashmalari, shuningdek boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini tashkil etishlari mumkin. Maktabdan tashqari ta'lim muassasalariga bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, san'at maktablari, musiqa maktablari, studiyalar, axborot-kutubxona muassasalari, sog'lomlashtirish muassasalari va boshqa muassasalar kiradi.

Mahalliy byudjetlar: Mahalliy hokimiyatlar ham o'z hududlaridagi umumtalim muassasalarini moliyalashtirishda muhim rol o'ynaydi. Ular o'z byudjetlaridan qo'shimcha mablag'lar ajratishi mumkin.

Ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishning qo'shimcha manbalari quyidagilardan iborat:

- shartnomalar asosida, shu jumladan chet ellik jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan tuzilgan shartnomalar asosida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hisobidan tushgan mablag'lar;

- jismoniy va yuridik shaxslarning buyurtmalari asosida ilmiy-tadqiqot, o'quvslubiy va qonunda taqiqlanmagan boshqa ishlarni bajarish hisobidan tushgan mablag'lar;



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



- ta'lim tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan mahsulotni, bajarilgan ishlarni va ko'rsatilgan xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar;
- binolar, inshootlar va asbob-uskunalarini ijaraga berish hisobidan tushgan mablag'lar;
- ta'lim tashkilotlarining bo'sh turgan pul mablag'larini bank muassasalariga depozitlarga joylashtirish hisobidan olingan pul mablag'lari (foizlar);
- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ajratiladigan mablag'lar;
- bank kreditlari va ssudalari;
- jismoniy va yuridik shaxslarning xayriya mablag'lari.

Xususiy sektor va hamkorlik: Xususiy sektordan kelayotgan investitsiyalar, xususiy maktablar va ta'lim muassasalari bilan hamkorlik orqali moliyalashtirish ko'lamini kengaytirish imkoniyatlari mavjud.

Bunga misol tariqasida maktabgacha ta'lim tizimini keltirish mumkin. «Ilg'or xalqaro amaliyotlar shuni ko'rsatadiki, kichik yoshli bolalarga sarmoya kiritish uzoq muddatli eng yaxshi sarmoyadir, biroq 3-7 yoshdagi 2,6 million bolani maktabgacha ta'lim bilan ta'minlash, ulardan 70% maktabgacha ta'lim muassasalariga bormasligini e'tiborga olgan holda, oson vazifa emas», - dedi YuNICEfning O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Sasha Graumann.

Xalqaro yordam va grantlar: Turli xalqaro tashkilotlar va donorlar ta'lim sohasiga mablag' ajratishmoqda, bu esa moliyalashtirish mexanizmini diversifikatsiya qilishga yordam beradi. O'zbekistonda iqtidorli yoshlar uchun prizident grantlari mavjud. Undan tashqari "El-yurt umidi" jamg'armasining bakalavriat, magistratura, doktorantura yo'nalishlari uchun grantlar ta'lim tizimida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro Universitetlar uchun ham grantlar mavjud.

Innovatsion dasturlar: O'qitish sifatini oshirish va yangi metodologiyalarni joriy etish uchun davlat va xususiy sektordan mablag'lar jalb qilinmoqda.

Hozirgi kunda umumtalim muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish, shuningdek, ta'lim sifatini oshirish maqsadida ko'plab tashabbuslar amalga oshirilmoqda.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Maktabgacha ta'limda davlat - xususiy sektor hamkorligi o'рни <https://kun.uz/news/2018/03/24/maktabgaca-talimda-davlat-hususij-sektor-amkorligi-urni-millij-va-halkaro-ekspertlar-tomonidan-muokama-etilmokda?q=%2Fuz%2Fnews%2F2018%2F03%2F24%2Fmaktabgaca-talimda-davlat-hususij-sektor-amkorligi-urni-millij-va-halkaro-ekspertlar-tomonidan-muokama-etilmokda>
2. Xalq ta'limi tizimini moliyalashtirish manbalari va ulardan samarali foydalanish masalalari <https://cyberleninka.ru/article/n/xalq-ta-limi-tizimini-moliyalashtirish-manbalari-va-ulardan-samarali-foydalanish-masalalari>
3. <https://my.gov.uz/oz/site/faq/107>